

**O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK
O'YINLARDAN FOYDALANISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

Toshpo'latova Mohira G'ulom qizi

Guliston davlat pedagogika instituti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi
1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10372200>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim o'quv jarayonini tashkil etishda didaktik o'yinlardan foydalanishning samaradorligi, ta'lim jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanishning ahamiyati bo'yicha ilmiy izlanish olib borgan olimlarning tadqiqotlari tahlili, didaktik o'yinlarni tashkil etishga qo'yiladigan talablar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, o'yin, didaktik o'yin, harakatli o'yin, aralash o'yin, so'z o'yin, intellektual o'yin, ta'lim, tarbiya, dars, mustaqil fikrlash, bilim, qiziquvchanlik, o'quvchi, o'qituvchi.

**SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF
IMPROVING THE METHODOLOGY FOR USING DIDACTIC GAMES IN
IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF THE EDUCATIONAL
PROCESS**

Abstract. This article reflects on the effectiveness of the use of didactic games in the organization of the educational process of primary education, the analysis of the studies of scientists who conducted scientific research on the importance of the use of didactic games in the educational process, the requirements for the organization of didactic games.

Keywords: elementary grade, game, didactic game, action game, mixed game, word game, intellectual game, education, upbringing, lesson, independent thinking, knowledge, curiosity, student, teacher.

**НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА**

Аннотация. В данной статье представлен анализ исследований ученых, проводивших научное исследование эффективности использования дидактических игр в организации образовательного процесса начального образования, значимости использования дидактических игр в

образовательном процессе, рассмотрены требования к организации дидактических игр.

Ключевые слова: начальный класс, игра, дидактическая игра, подвижная игра, смешанная игра, словесная игра, интеллектуальная игра, воспитание, обучение, урок, самостоятельное мышление, Знания, любознательность, ученик, учитель.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziquvchanligi, bilishga intilishi so'nmagani davrida, mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, tafakkuri rivojlantiruvchi didaktik o'yinlardan foydalanib o'quvchilarga chuqur bilim berish boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "“O'ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASI TO'G'RISIDA”gi PF-158-sonli Farmonida 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlari belgilangan bo'lib, unda ta'lim tizimiga oid quyidagi islohotlar nazarda tutilgan:

maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to'liq qamrovini ta'minlash;

umumiy o'rta ta'lim tizimida "Ta'lim uchun qulay muhit" dasturini amalga oshirish;

umumiy o'rta ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish;

pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish;

oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish va boshqalar.

Ushbu ustuvor vazifalarni bajarish jarayonida xalq ta'limi tizimida o'quvchi-yoshlarga ta'lim-tarbiya berish tizimini isloh qilish bilan birgalikda oliy ta'lim tizimiga sifatli kadrlar tayyorlashdek mas'uliyatli vazifani yukladi.

O'yin kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, o'yin dunyoni va uzligini anglashda, qiziqishlarini qondirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ta'limiy o'yinlar bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillatish va o'yin orqali bilim berish maqsadida yaratilgan.

A.Y.Bobomurodova ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini o'yin xarakterida ko'rish lozimligini ta'kidlaydi va shunday deydi: "Ta'limiy o'yinlar o'quvchilarni ijodiy faoliyat ko'rsatishga, o'rganilayotgan til hodisalarining mohiyatini anglab, mustaqil ravishda hukm va xulosalar chiqarishga, har bir o'quvchiga o'zligini

namoyish etish va mulohazalarini erkin bayon etib, o‘z nuqtayi nazarini himoya qilishga keng imkoniyat yaratadi. Tezkorlik, sezgirlik, topqirlik, qat‘iylik, o‘quv qiyinchiliklarini mustaqil yengish kabi fazilatlarni tarkib toptirish, ko‘pincha, ta‘limiy o‘yinlar orqali amalga oshiriladi”.

L.V.Artemova esa ta‘limiy o‘yinlarning muhim jihatlari, vazifasi va ahamiyati haqida shunday deydi: “Didaktik o‘yinlarning muhim jihatlari shundaki, o‘quv topshiriqlari bolalarga o‘yin shaklida taqdim etiladi. Bolalar o‘yin jarayonida bilimlarni o‘zlashtirayotganlari, ma‘lum predmetlardan foydalanish malakalarini va o‘zaro muomala madaniyatini egalalayotganlarini sezmaydilar. Har bir didaktik o‘yin ta‘limiy va tarbiyaviy mazmuni, o‘yin topshiriqlari, o‘yin harakatlari, o‘yin va tashkiliy munosabatlardan iborat bo‘ladi”.

Olima Sh.Nurullayeva o‘z tadqiqotida didaktik o‘yinlarni mazmuniga ko‘ra tinch o‘yinlar, harakatli o‘yinlar, aralash tipdagi o‘yinlar; shakliga ko‘ra musobaqa o‘yinlari, sahna o‘yinlariga ajratadi.

Harakatli o‘yinlarga ona tili ta‘limi jarayonida qo‘llaniladigan musiqali o‘yinlar va sahna o‘yinlarini misol qilib keltirish mumkin.

Aralash o‘yinlar o‘zida ham harakatli o‘yinlar, ham tinch o‘yinlar elementlarini aks etiradi.

Tarqatma materiallar asosida uyushtiriladigan o‘yinlar, so‘z o‘yinlari, kesma harflar bilan o‘tkaziladigan o‘yinlar tinch o‘yinlarga misol bo‘la oladi.

Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari: Intelektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bu o‘yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy ahloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta‘lim-tarbiya jarayonida asosan o‘quvchilarda ta‘lim olish motivlarini, ularning turli yo‘nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko‘rsatadigan didaktik o‘yinlardan foydalaniladi. Didaktik o‘yinlar intellektual metodlarning tarkibiy qismlaridan biri sifatida o‘quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushirishga, o‘ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi. Ayniqsa unda atrof – muhit, hayotga bo‘lgan qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to‘siqlarni qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Didaktik o‘yinlar nazariy, amaliy jismoniy, roli, ishchanlik va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha, turlari bo‘yicha ajratiladi. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o‘lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, ahloq odob o‘rgatish, yangi bilimlar o‘rgatish va boshqa faoliyat

turlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘yinlarga ajratiladi.

Didaktik o‘yinlarga qo‘yiladigan talablar:

1. Didaktik o‘yinlar o‘quv predmetlari bo‘yicha dastur materialiga muvofiq yo‘sinda tanlanishi lozim.
2. Didaktik o‘yin unda qatnashuvchilarga bilimlar bo‘yicha ma‘lum talablar qo‘yiladigan yo‘sinda ishlab chiqilishi kerak.
3. Didaktik o‘yinning muvaffaqiyatli o‘tishi uning maqsadini yaqqol aniqlashiga bog‘liq.
4. O‘yinlarni tanlashda ma‘lum izchillikka rioya qilish zarur.
5. Didaktik o‘yinlarning qoidasini va tashkil etilishini tuzish va ishlab chiqishda o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini, ularning turli (bo‘sh va kuchli, faol va loqayd) guruhlarini hisobga olish kerak.
6. O‘yinning qoidalari sodda, aniq bo‘lishi va yaqqol ifodalanishi lozim.
7. Har bir o‘quvchi butun o‘yin jarayonida faol ishtirok etishi, o‘z “navbatini” uzoq kutish o‘yinga qiziqishni susaytirishi mumkinligini unutmazlik kerak.

Har bir o‘yinga umumiy va yakka tartibda yondashish, undagi topshiriqlarning qiyinlik darajasini va qanchasi mustaqil holda bajarilishini hisobga olish kerak.

Boshlang‘ich sinflar ta‘limi amaliyotida keng foydalaniladigan didaktik o‘yinlar bevosita bilish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, ta‘limning takomilga yetishiga yordam beradi. Didaktik o‘yinlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va intellektual imkoniyatiga mos ta‘lim texnologiyalaridan biri sifatida:

–passiv o‘quvchilarni jamoaga aralashtirish, ularning har xil vazifalarni qo‘rqmasdan bajara olishlariga xizmat qiladi;

–o‘quvchilarning birgalikda o‘ynab, o‘z manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uyg‘unlashtira olishlari, bir-biriga ko‘maklashish, muvaffaqiyatidan xursand bo‘lish kabi yaxshi sifatlarni tarkib toptirishga yordam beradi;

–shaxsga xos bo‘lgan sofdillik, rostgo‘ylik, harakatchanlik kabi ijobiy xislatlarning shakllanishiga ko‘maklashadi;

–darsda o‘quvchilarning imkon qadar erkin va o‘zaro do‘stona faoliyat yuritishlariga sharoit yaratadi;

–tarbiyalanuvchilarni tevarak-atrof, odam va olam sirlari to‘g‘risidagi bilimlarini mustahkamlashga yo‘naltiradi;

–o‘z shaxsiy tajribalaridan, hayotda ko‘rgan-bilganlaridan, badiiy asarlar mutolaasidan o‘zlashtirganlarini amalda foydalanishga o‘rgatadi;

–ijodiy imkoniyatlarini, kashf etish qobiliyatlarini, yaratuvchanlik iqtidorlarini rivojlantiradi;

–bilim olish jarayonining yengilroq, qiziqarliroq kechishiga, aqliy zo‘riqlarning yoqimli kechishiga turtki beradi;

–aqliy imkoniyatlarining takomillashishiga asos bo‘ladi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, ta’lim jarayonida, xususan, boshlang‘ich ta’limda dars jarayonini tashkil qilishda didaktik o‘yinlardan foydalanish dars samaradorlini oshirish bilan birgalikda o‘quvchilarning bilim olishga qiziqishini oshiradi, harakatchanlikka va mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASI TO‘G‘RISIDA”gi Farmoni. PF-158-son. 2023-yil 11-sentabr. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. Abdikhadirovna, U. D. (2022). Possibilities of improving the methodology of preparing primary class students for the international assessment program based on digital technologies (example of pirls). *Innovation in the modern education system*, 3(25), 159-163.
3. Abdixadirovna, U. D. (2022). Reviews on Preparation for the Pirls International Assessment Program. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 6, 696-700.
4. Артемова Л.В. Окружающий мир в дидактических играх: книга для воспитателя детского сада и родителя. - Москва: Просвещение, 1992. 97 стр.
5. Bobomurodova A. Ona tili ta’limi jarayonida o‘yin topshiriqlaridan foydalanish. Ped. fan. nom. ... dis. –T.: 1996. - 146 b.
6. Boychayeva Sh.S. Ta’lim samaradorligini oshirishda didaktik o‘yinlarning o‘rni// maqola. Science and innovation international scientific journal <https://doi.org/10.5281/zenodo.7344807>
7. Dilrabo, E., & Dildora, U. (2022). Modern Approaches Natural Science Lessons. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 6, 481-484.
8. Husanboyeva Q., Hazratqulov M., Jamoliddinova Sh. Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi. Oliy o‘quv yurtlari pedagogika fakultetlari (boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari) uchun darslik. –T.: Innovatsiya-ziyo, 2020.

9. Nurullayeva Sh. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish usullari. –Qarshi. 2005.
10. Utanbayeva, D. A. (2020). BOSHLANG'ICH SINFLARINI O'QUVCHILARINI ONA TILI TA'LIMI JARAYONIDA MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH. In *МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ* (pp. 236-239).
11. Utanbayeva, D. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARINI PIRLS XALQARO VAHOLASH DASTURIGA SAMARALI TAYYORLASHDA BADIY MATNLAR BILAN ISHASHNING ANAMIYATI. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(4), 27-31.
12. Элмуратова, Д. Asmelogig aspekt of professional-pedagogical preparation of the future teacher of initial classes. In *Молодежь и наука: шаг к успеху Сборник научных статей Всероссийской научной конференции перспективных разработок молодых ученых* (pp. 10-13).
13. Элмуратова, Д. (2021). БЎЛАЖАК БОШЛАНГИЧ SINFLARINI O'QUVCHILARIDA ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИНГ ШАКЛЛАНГАНЛИК ДАРАЖАСИ. *Scientific progress*, 2(8), 220-223.
14. Элмуратова, Д. (2018). INNOVATIVE METHODS OF TEACHING STUDENTS IN HIGH EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*. 223.
15. Elmuratova, D. (2018). THE MAIN INDICATORS OF PROFESSIONAL TRAINING OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS TO INNOVATIVE ACTIVITY. *Central Asian Journal of Education*, 2(1), 63-68.